


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**2024/3-SON  
ILLOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>M.R.Shermatov, B.D.Abdikaxorov</b>	
Zararkunanda tangachaqanotilar populyatsiya zichligini monitoring qilish uslublari .....	333
<b>M.R.Shermatov</b>	
Farg'ona vodiysi agroekotizimlari metall tusli tunlamlari (Lepidoptera, Noctuidae, Plusiinae) .....	338
<b>B.M.Sheraliyev</b>	
Dukentsoy daryosi ixtiofaunasining hozirgi tur tarkibi .....	343
<b>B.Sh.Sheraliyev, O.S.Azamov, M.M.Raxmonov, Sh.A.Xalimov</b>	
Isfayramsov daryosi quyi oqimi ixtiofaunasining hozirgi tur tarkibi .....	347
<b>E.X.Najmuddinov, X.Z.To'ychiyeva</b>	
Farg'ona vodiysi suv omborlarida uchraydigan baliqlar gelmintofaunasi .....	353
<b>E.X.Najmuddinov</b>	
Farg'ona vodiysi baliqchilik xo'jaliklarida yetishtiriladigan baliqlar gelmentofaunasi.....	357
<b>E.X.Najmuddinov</b>	
Oq do'ngpeshona balig'i gelmintoz kasalliklariga qarshi antigelmintik preparallarni qo'llash usullari .....	360
<b>M.M.Yunusov, M.M.Abdughalimova</b>	
Shiralarning qishki tinim holati.....	363
<b>M.M.Yunusov, M.M.Abdughalimova</b>	
Shiralar biologiyasidagi o'ziga xos xususiyatlari .....	366
<b>M.M.Raxmonov, O.S.Azamov, B.M.Sheraliyev</b>	
Shohimardonsov-Marg'ilonsoy daryosi ixtiofaunasining (Teleostei: Actinopterygii) yangilangan turlar ro'yxati va muhofaza maqomi.....	371
<b>M.A.Axmadjonova</b>	
Lixus bardanae J.C.Fabricius, 1787 (Coleoptera: Curculionoidae) turining Farg'ona vodiysida tarqalishi haqida .....	377
<b>Sh.A.Xalimov, A.M.Inomov, B.M.Sheraliyev</b>	
Farg'ona viloyati zovurlarida uchrovchi <i>Triplophysa strauchii</i> (Kessler, 1874) ning uzunlik va og'irlik munosabatlari .....	381
<b>Sh.A.Xalimov</b>	
Farg'ona vodiysi suv havzalarida uchrovchi <i>Triplophysa strauchii</i> (Kessler, 1874) ning tarqalishi va geoaxborot ma'lumotlari .....	387
<b>Sh.B.Yo'Idashev</b>	
O'zbekiston gerpetofaunasining tur tarkibi .....	393
<b>Ahmadjonova Sadoqatxon, S.A.Adxamova</b>	
Markaziy Farg'ona hududida tarqalgan o'rgimchak turlarining sistematik tahlili va ro'yxati .....	399
<b>S.Sh.Axmadjonova</b>	
Ayrim ov to'ri hosil qilmaydigan o'rgimchak oilalarining biologik hususiyatlari.....	403
<b>S.Sh.Axmadjonova</b>	
Spilberger – xanin testi orqali talabalarning nerv zo'riqishlarini aniqlash .....	407
<b>B.X.Baxromova</b>	
Farg'ona vodiysi o'rgimchaklarining molekulyar identifikasiysi natijalari .....	411
<b>B.X.Baxromova</b>	
O'rgimchak turlarini aniqlashda tutqich to'rlarini ahamiyati .....	417
<b>B.X.Baxromova, N.G.Odilova</b>	
Farg'ona vodiysida uchrovchi o'rgimchak oilalaridan Thomisidae oиласига kiruvchi muhim turlarning biologiyasi .....	422
<b>E.A.Botirov</b>	
Catocala elocata (Esper, 1788) kapalagining (Lepidoptera: Eribidae) morfoloyisi va bioekologik xususiyatlari .....	427
<b>E.A.Botirov</b>	
Arctia caja (Linnaeus, 1758) kapalagining (Lepidoptera: Eribidae) morfoloyisi va bioekologik xususiyatlari .....	430
<b>S.M.Isag'aliyeva</b>	
Tabiiy fanlarda funksional topshiriqlar .....	434



UO'K: 595.44

**FARG'ONA VODIYSIDA UCHROVCHI O'RGIMCHAK OILALARIDAN THOMISIDAE  
OILASIGA KIRUVCHI MUHIM TURLARNING BIOLOGIYASI**

**БИОЛОГИЯ ВАЖНЫХ ВИДОВ СЕМЕЙСТВА THOMISIDAE В ФЕРГАНСКОЙ  
ДОЛИНЕ**

**BIOLOGY OF IMPORTANT SPECIES FROM THE THOMISIDAE FAMILY OF  
THOMISIDAE IN THE FERGANA VALLEY**

Baxromova Barno Xasanovna<sup>1</sup> 

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti b.f.f.d. (PhD) katta o'qituvchi

Odilova Nodira G'olibjon qizi<sup>2</sup> 

<sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti magistran

**Annotatsiya**

*Maqolada Farg'ona vodiysi araxnofaunasida uchrovchi 44 turdag'i o'rgimchak uchrashi aniqlanganligi, ularning tabiiy ekosistemalar va agroekosistemalardagi turlar bir-biridan yetarlicha farq qilishi haqida yozilgan. Bundan tashqari maqolada vodiylar araxnofaunasidagi keng tarqalgan Thomisidae oilasiga kiruvchi turlarning hayot sikli va biologiyasi xususida ma'lumotlar keltirilgan. Ayniqsa Farg'ona vodiysida tarqalgan shu oilasiga mansub Ozyptila atomaria va Thomisus onustus o'rgimchak turlarining morfologiysi, bioekologiyasi, ko'payishi haqida so'z boradi. Bundan tashqari, bu ikki turning yil davomidagi ko'payish dinamikasi tasviri keltirilgan.*

**Аннотация**

*В статье написано, что в арахнофауне Ферганской долины обнаружено 44 вида пауков, причем их виды в природных экосистемах и агрозоосистемах достаточно отличаются друг от друга. Кроме того, в статье приведены сведения о жизненном цикле и биологии видов, принадлежащих к семейству Thomisidae, широко распространенных в арахнофауне долины. Обсуждаются морфология, биоэкология и размножение видов пауков Ozyptilaatomaria и Thomisus onustus, принадлежащих к этому семейству, особенно распространенных в Ферганской долине. Кроме того, представлена фотографии динамика размножение этих двух видов в течение года.*

**Abstract**

*The article says that 44 species of spiders were found in the arachnofauna of the Fergana Valley, and their species in natural ecosystems and agroecosystems are quite different from each other. In addition, the article provides information about the life cycle and biology of species belonging to the family Thomisidae, widespread in the arachnofauna of the valley. The morphology, bioecology and reproduction of spider species Ozyptilaatomaria and Thomisus onustus belonging to this family, especially common in the Fergana Valley, are discussed. In addition, photographs of the reproduction dynamics of these two species throughout the year are presented.*

**Kalit so'zlar:** o'rgimchaklar, Farg'ona vodiysi, araxnofauna, biologik xilmayillik

**Ключевые слова:** пауки, Ферганская долина арахнофауна, биологическая ранообразность.

**Key words:** spiders, Fergana Valley, arachnofauna, biodiversity.

**KIRISH**

Umurtqasiz hayvon turlarining quruqlik mintaqalari bo'ylab turli miqdorda va ko'rsatgichda tarqalishi hudud biogeografiyasining o'ziga xos eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib [8; 556–567-b], bundan o'rgimchaklar ham mustasno emas [4; 1–10-b]. Har bir zoogeografik hududning tarkibiy qismi hisoblangan hayvonlarning tur tarkibi, ular orasidagi dominant turlarning ahamiyati yuqori bo'lib, ushbu turlar mintaqaga ekotizmining qanday shakllanishi, turlar populyatsiyalari orasidagi o'zaro munosabat va turlarning o'zaro trofik va boshqa muhim biologik ko'rsatkichlarga ko'ra barqaror munosabatga kirishganini tushunish uchun yordam beradi [7; 1241–1249-b, 9; 81–92-b]. Farg'ona vodiysi araxnofaunasida ushbu tadqiqot davomida 44 turdag'i o'rgimchak uchrashi aniqlangan bo'lsa, ularning barchasi ham birdek keng tarqalmagan. Tabiiy ekosistemalar va agroekosistemalardagi turlar bir-biridan yetarlicha farq qiladi. Quyida vodiylar araxnofaunasidagi keng

## BIOLOGIYA

tarqalgan Thomisidae oilasiga kiruvchi turlarning hayot sikli va biologiyasi xususida ma'lumotlar keltirilgan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLIGIYA**

Thomisidae oilasi butun dunyo bo'ylab keng tarqalgan bo'lib hozirgi kunda o'rgimchaklar katalogi ro'yxati bo'yicha 171 uruqqa mansub 2103 ta turni o'z ichiga oladi. O'zbekistonda bo'lsa bu oilaga mansub 34 turni uchratish mumkin. Thomisidae oilasini ilk martta Sundevall 1833 yilda aniqlagan. Oil a nomi ubu oilaga kiruvchim o'rgimchaklarning oyoqlari yon tomonlama ham yura olish qobiliyati borligi sabab berilgan. Shu sababdan ularni ba'zan "yonlab yuruvch" o'rgimchaklar deyiladi. Shu bilan birga bu oilaga kiruvchi o'rgimchaklarning oyoqlari krablar qisqichidek oldinga qayrilib turganligi uchun ular ba'zan "krab o'rgimchaklar" deb ham nomlanadi.

Farg'ona vodiysida bu hudud ekotizimida muhim rol o'ynaydigan Thomisidae oilasiga mansub o'rgimchaklarning 7 turini uchraydi. Shundan 2 tur vodiyning hamma qismida uchratish mumkin bo'lgan dominant tur hisoblanadi. Bu turlar *Ozyptila atomaria* va *Thomisus onustus* turlaridir. *Thomisus onustus* turi haqida 1805-yilda Walckenaer o'z adabiyotlarida aytib o'tib ketgan. *Ozyptila atomaria* haqida esa Simon 1864-yilda birinchi mariotaba uni tabiatda aniqlaganligi otabiatrgimchaklar katalogida berilib otabiattilgan.

**NATIJA VA MUHOKAMA**

*Ozyptila atomaria* Farg'ona vodiysining uchchala viloyatlarining tuproq namligi yuqori bo'lgan hududlarining daraxtlari ko'p salqin o'tloqzorlarida ko'p uchraydigan tur hisoblanadi. Tanasining rangi och jaigarrangda bo'lib qorin qismida to'q jaigarrang ko'rinishdagi dog'lari mavjud (1-rasm). Oyoqlari ochiq rangda bo'lib tuklar bilan qoplanganligi xarakterli. *Ozyptila atomaria* tuproqda, toshlar tagida yashaganligi uchun bu tuklar tuproq changlarini o'zida tutib qoladi va buning hisobiga o'rgimchak tosh yoki tuproq bo'lakchasiga o'xshab qolib tashqi dushmanlardan o'zini himoya qiladi. Bu maskirovka nafaqat uni dushmanlaridan himoya qiladi balki o'ljasni uni sezmay qolib o'rgimchak uni osongina tutib o'lishi uchun ham xizmat qiladi. U tutqich to'ri to'qimaydigan o'rgimchak bo'lganligi sababli asosan tuproqda o'rmalab yuruvchi hashoratlar bilan oziqlanib hayot kechiradi.


Tashqi tomondan *Ozyptila atomaria* erkak va urg'ochilari bir-biridan hajm jihatdadan farq qiladi. Erkaklarini kattaligi 3-4 mm, urg'ochilari esa 4-6 mm kattalikda bo'ladi. Bu o'rgimchakning ikkala vakili ham bir yillik o'rgimchaklar qatoriga kiradi.



**1-rasm.** *Ozyptila atomaria*.

*Ozyptila atomaria*ning voyaga yetgan vakillarini iyun oyidan boshlab uchratish mumkin. Kuzatuvlarimiz Beshariq tumani xududidagi o'rikzorida olib borilganida iyun oyida 1 m<sup>2</sup> joyda 14 ta o'rgimchaklar tutildi (2-rasm).

Oy oxirida urg'ochilari tuxumlarini otalantiradi va oq rangli yumaloq iplari zinch to'qilgan pillalarga qo'yib chiqadi. Iyul oyida 1 m<sup>2</sup> joydagagi o'rgimchaklar soni keskin kamayib ketgani kuzatildi. Bunga sabab erkaklari urg'ochilarini otalantirganidan so'ng qirilib ketadi. Avgust oylarida pilla ichidan mayda yosh o'rgimchaklar chiqadi. Bu vaqtida 1 m<sup>2</sup> joydagagi tutilgan o'rgimchaklar soni 16 ta bo'ldi. Yangi pilladan ajralib chiqqan o'rgimchaklar qishlash uchun joy izlaydilar. Sentyabr oyida kuzatilganida 1 m<sup>2</sup> Ular qishni tuproq ostida, toshlar tagiga joylashib keyingi yoz faslini kelishini kutadi.

**2-rasm.** *Ozyptila atomaria* turining yil davomidagi mavsumiy miqdor ko'payish dinamikasi.


*Thomisus onustus* tutqich to'ri to'qimaydigan o'rgimchaklar qatoriga kirib u Farqona viloyatining butazorlarida, o'tloqzorlarida yashovchi yirtqich o'rgimchak hisoblanadi. Onustus o'zgaruvchan ma'nosini bildirib, unga bu nomi berilishi ham bejizga emas. Uning maskirovka xususiyati yuqori darajada bo'lib, o'simlik gullari markaziga joylashib olib gulning rangiga moslanib oladi va ko'p vaqtini o'sha yerda ov qilish uchun hasharotlarni poylab o'tkazadi. Natijada o'lja uni payqamay o'rgimchakka yem bo'ladi.

O'rgimchak hajmi kichkina bo'lgani bilan u o'zining gavdasidan katta bo'lgan, gullarni changlantirish uchun kelgan kapalaklar, asalarilar, chumagarilar, qovoqarilar, chumolilar va boshqa hasharotlarga hujum qilib oziqlanadi. Ba'zan ozuqa tanqisligi davrida ular gul changi va nektari bilan ham oziqlanadi. Tajribalar shuni ko'rsatdiki bu o'rgimchak och holatda ham 15-17 kungacha yashay oladi. (3-pacm).

**3-rasm.** *Thomisus onustus* ning urg'ochisi.

*Thomisus onustus* ning urg'ochisi erkaklaridan yirikroq bo'lib, uning kattaligi 6-7 mm, erkaklari esa 2.5-3.5 mm atrofida bo'ladi. Ushbu o'rgimchakning erkak va urg'ochi vakillari bir-biridan nafaqat o'lchami bilan balki ranglari bilan ham farq qiladi. Urg'ochisining rangi to'liq oq rangda yoki to'liq sariq rangda, bo'lib, ularning orqa tomonida pushti rangda dog'lari mavjud. Ba'zan esa bu dog'larga qo'shimcha holda to'q sariq, to'q qizil, jigarrang dog'lar ham bo'lishi mumkin. Erkaklari esa oq, och jigarrang va jigarrang bo'lishi mumkin. Voyaga yetgan vakillarini yozning dastlabki ikki oyiyun va iyul oylarida ko'p uchratildi (4-rasm).

Iyun oyi ular uchun juftlashish mavsumi hisoblanadi va bu oyda ular 1 m<sup>2</sup> joyda 16 ta Farg'ona viloyati Quvasoy shahrida uchradi. Iyun oyning ikkinchi dekadasida urg'ochilari tuxumlarini ikitadan to'rttagacha qopcha shaklida pilla ichiga o'raydi. Pillalarni u barglar orqasiga mahkamlab yopishtirib chiqadi. Pillalar ichida umumiy holda 400 tagacha tuxum bo'ladi. Urg'ochilari bir vaqtin o'zida ham pilla ichidagi tuxumlar ochib chiqqunicha ularni qo'riqlab himoya qiladi, ham o'zi uchun ov qilib yashashda davom etadi. Erkaklari esa juftlashish mavsumi o'tganidan so'ng o'lib ketadi. Shu sababli iyul oyida ularni 1 m<sup>2</sup> joydagi miqdori kamayib 7 dona o'rgimchak topildi. Yoz oylarining oxirida tuxumlardan yosh o'rgimchaklar chiqadi. Bu vaqtida esa 1 m<sup>2</sup> dagi tutilgan o'rgimchaklar soni 20 taga yetadi. Tuxumdan chiqqan o'rgimchakchalar qishki tinim davrini o'tkazish uchun mayda



**4-rasm.** *Thomisus onustus* turining yil davomidagi mavsumiy miqdor ko'payish dinamikasi. hasharotlarni tutib oziqlanib tanasida energiya zaxirasi to'playdi. Sentyabr oyida ularni tabiatda uchratish qiyinlashadi. Kuzatish davomida 1 m<sup>2</sup> joyda faqatgina 2 dona o'rgimchak uchradi xolos. Bu vaqtda ular daraxt po'stloqlari orasiga yashirinib qishki uyquga ketadi. Keyigi yili iyun boshlarida voyaga yetgan *Thomisus onustus*lar voyaga yetgan xolatda tashqi muhitga chiqib ma'lum bir muddatdan keyin juftlashib ko'paya boshlaydi. Ular tinim davrida 9 marotaba tulab voyaga yetadilar. Ularning jinsiy yetilishi erkaklarida 3-5 yoshiga to'g'ri keladi urg'ochilarida esa 6-9 yoshida to'liq jinsiy yetiladi. Bundan kelib chiqadiki jinsiy yetilishi uchun tuxumdan chiqqan erkak o'rgimchaklar uchun ikki yarim oy, urg'ochilariga esa bir yil vaqt kerak bo'ladi.

### XULOSA

Ushbu o'rgimchak turlarining biologiyasini o'rganish ularning ekotizimdagi roli, tabiatdagi o'rni, xatti-harakatlarini, ov qilish strategiyasini va boshqa organizmlar bilan o'zaro munosabatlарини yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ayniqsa biologik xilma-xillikni va ekotizimni saqlab qolishda ular biologiyasini bilish muhimdir.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Ковблюк Н.М., Кукушкин О.В., Гнелица В.А., Надольный А.А. Краткий атлас пауков (Arachnida, Aranei) Карадагского природного заповедника. - Симферополь: Н.Орианда, 2008. - 120 с.
- Кронеберг А. Пауки // А.П.Федченко Путешествие в Туркестан Известия императорского общества любителей естествознания антропологии и этнографии, Том XIX, выпуск 3, С-Петербург, Москва, 1875, 56 с.
- Сейфуллина.Р., Карцев В.М. Пауки средней полосы России: Атлас-определитель. - М.: Фитон+, 2011. - 608 с.
- Knapp M., Řezáč M. Even the Smallest Non-Crop Habitat Islands Could Be Beneficial: Distribution of Carabid Beetles and Spiders in Agricultural Landscape. // PLOS ONE, 10 (4), (2015), e0123052.
- Марусик Ю.М. Новые данные о фауне и синонимии пауков СССР (Arachnida: Aranei) // А.Б. Ланге (отв. ред.). Fauna и экология пауков и скорпионов. Арахнол. сб. М.: Наука. 1989. - С. 39–52.
- Marusik M.Y. Spiders of Siberia and the Far East of Russia. Moscow, 2011, 344 pp.
- Meng K., Li S., Murphy R.W. Biogeographical patterns of Chinese spiders (Arachnida: Araneae) based on a parsimony analysis of endemism. // Journal of Biogeography, 35 (7), (2008), 1241-1249.
- Utz R.M., Hilderbrand R.H., Boward D.M. Identifying regional differences in threshold responses of aquatic invertebrates to land cover gradients. // Ecological Indicators, 9 (3), (2009), 556-567.
- Zhang J.X., Maddison W.P. Molecular phylogeny, divergence times and biogeography of spiders of the subfamily Euophryinae (Araneae: Salticidae). // Molecular Phylogenetics and Evolution, 68 (1), (2013), 81-92.